

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT GEOLOGIYA VA MINERAL RESURLAR QO‘MITASINING TASHKIL ETILISHI

**Xo‘jayarova E’tibor Sobir qizi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Tarix fakulteti “Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi” yo‘nalishi

1-bosqich magistranti

E-mail: [etibormavutova@gmail.com](mailto:etibormavutova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasining tashkil etilishi va uning vazifalari, tashkiliy tuzilmasi, markaziy apparatining tarkibiy tuzilishi yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** geologiya, mineral resurslar qo‘mitasi, Farmon, Geologiya fanlari universiteti, struktura, tuzilma, boshqarma, bo‘lim, Harakatlar strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan so‘ng, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy sohalarda amalga oshirilgan o‘zgarishlar jarayonida davlat boshqaruv tizimini isloh qilishga katta e‘tibor qaratildi. Bu Bosh Qomusimiz konstitutsiyada ham alohida mustahkamlangan bo‘lib, unda ko‘rsatilishicha, “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi”<sup>1</sup>. Belgilangan vazifalar doirasida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislaridan iborat<sup>2</sup>. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi,

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 11-modda. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 2.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 98-modda. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 20.

ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni ta'minlaydi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi ham Vazirlar Mahkamasi qoshida faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi 1991-yil 12-fevraldan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan № PQ-142-sonli qaroriga binoan tashkil qilingan<sup>3</sup>. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27- apreldagi 315-sonli Qaroriga<sup>4</sup> muvofiq “O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi to'g'risida Nizom”i tasdiqlanishiga qadar amal qilgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi raisi etib Islamov Bobir Farxadovich tayinlangan<sup>5</sup>. Shuningdek, 2020-yil 11-iyunda Geologiya fanlari universiteti rektori vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi<sup>6</sup>.

Quyidagilar Davlat geologiya qo'mitasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- yer qa'rini geologik o'rganish, foydalanish va muhofaza qilish, shuningdek, konchilik munosabatlarini boshqarish borasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

- respublikaning mineral-xomashyo bazasini, birinchi navbatda yer osti suvlari, qimmatbaho, rangli, nodir, kamyob metallar va uranning mineral-xomashyo bazasini jadal rivojlantirish, mineral xomashyoning yangi turlarini va ularning konlarini tezkor izlash;

- geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish, foydali qazilmalar zaxirasi o'sishini ta'minlash va joylarda sanoatning yangi quvvatlari yaratilishini inobatga olib iqtisodiyot tarmoqlarining mineral-xomashyo bazasini qayta to'ldirish;

<sup>3</sup> O'zbekiston sovet sotsialistik respublikasi Prezidentining Farmoni, “O'zbekiston SSR Davlat geologiya va mineral resurslar komitetini tashkil etish to'g'risida”, 1991-yil 12-fevral. PF-142-son.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori, “O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi to'g'risidagi Nizom”, 2018-yil 27-aprel. PQ-315-son.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2017-yil 28 iyul. PF-5124 son.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2020 yil 8-iyun. PQ-4740-son.

- geologik o‘rganish va foydali qazilmalar konlarini sanoat yo‘li bilan o‘zlashtirish sohasida faol investitsiya siyosatini yuritish va qulay investitsiya iqlimi yaratish;

- raqobatbardosh mahsulotlar bo‘yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil qilish uchun birinchi navbatda respublika hududlarida sanoatda faoliyat ko‘rsatayotgan tarmoqlarning xomashyo manbalarini diversifikatsiyalash bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- mineral-xomashyo bazani rivojlantirish va qayta to‘ldirishning uzoq muddatli, o‘rtacha muddatli va yillik davlat dasturlari monitoringi olib borilishini va nazorat qilinishini ta‘minlash, yer qa‘rini geologik o‘rganish metodikasini o‘rganish natijalari hajmi, sifati va ishonchliligini xolisona baholash;

- yer qa‘rini geologik o‘rganish, foydali qazilmalarni qazib olish (shu jumladan, mineral, termal, sanoat yer osti suvlari), mineral xomashyoni qayta ishlash, shuningdek, konchilik ishlarini geologik-marksheyderlik ta‘minlashda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yer qa‘ridan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari va normativ hujjatlar talablariga rioya qilinishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirish;

- unumdorligi yuqori bo‘lgan zamonaviy geologiya-qidiruv asbob-uskunalarini tezkor joriy qilish, ilg‘or texnika va innovatsion texnologiyalar bilan ta‘minlash hisobiga geologiya tarmog‘ini modernizatsiyalash bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- geologiya sohasi uchun oliy, o‘rta maxsus va kasb-hunar ma‘lumotiga ega bo‘lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish yuzasidan tizimli choralarni amalga oshirish, shuningdek, mehnatini rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish<sup>7</sup>.

Davlat geologiya qo‘mitasi tizimiga quyidagilar kiradi: Davlat geologiya qo‘mitasining markaziy apparati, “Mintaqaviy geologik-tasvirlash izlash ekspeditsiyasi” DK, “Markaziy geologiya-geofizika ekspeditsiyasi”

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom”, 2018-yil 27-aprel, 315-son.

DK, “Qizilqumgeologiya” DK, “Samarqandgeologiya” DK, “Hisorgeologiya” DK, “Toshkentgeologiya” DK, “Urannodir metallgeologiya” DK, “O‘zbek gidrogeologiya” DK, H.M. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti, “Mineral resurslar instituti” DK, “Gidrogeologiya va muhandislik instituti” DK, “Geologiya tarmog‘i kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti” DK, “O‘zGEORANGMETLITI” DK, “Markaziy laboratoriya” DK, “Geoburtexnika” DK, “Geoltexta’minot” DK, “Davlat geologiya axborot markazi” DK, Kitob davlat geologiya qo‘riqxonasi, Davlat geologiya muzeyi, “Chotqol reabilitatsiya markazi” DK, Kon-geologik faoliyat ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish davlat xizmati, “Geologiya-marksheyderlik xizmati” DK<sup>8</sup>.

Davlat geologiya qo‘mitasi markaziy apparati quyidagi boshqarma va bo‘limlardan iborat: 1. Maslahatchilar; 2. Mineral-xomashyo bazani rivojlantirish va takror ishlab chiqarish bosh boshqarmasi; 3. Fan va innovatsiyalar boshqarmasi; 4. Texnik siyosat boshqarmasi<sup>9</sup>; 5. Geologik loyihalarni ekspertiza qilish boshqarmasi; 6. Geologiya sohasida davlat xizmatlari boshqarmasi; 7. Investitsiyalarini jalb qilish va investitsiyaviy loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash boshqarmasi; 8. Neft va gaz geologiyasi boshqarmasi; 9. Neft va gaz burg‘ulash ishlarini tashkillashtirish boshqarmasi; 10. Xarid ishlarini tashkillashtirish boshqarmasi; 11. Iqtisodiyot va moliyalashtirish boshqarmasi; 12. Buxgalteriya hisobi boshqarmasi; 13. Ishlar boshqarmasi; 14. Mineral-xomashyo bazani rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturini shakllantirish bo‘limi; 15. Yer qa‘rini regional o‘rganish va geologik xaritalash bo‘limi; 16. Qimmatbaho va rangli metallar bo‘limi; 17. Uran, nodir va kamyob yer metallar bo‘limi; 18. Gidrogeologiya, muhandislik geologiyasi va geoekologiya bo‘limi; 19. Noruda xomashyo bo‘limi; 20. Texnik ishlab chiqarish bo‘limi; 21. Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi bo‘limi; 22. Litsenziyalash bo‘limi; 23. Ruxsat beruvchi tartib-taomillari bo‘limi; 24. Qimmatbaho metallarni

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom”, 2018-yil 27-aprel. 315-son.

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 1-mart. PQ-3578-son.



oltin izlovchilar usulida qazib olishni litsenziyalash bo‘limi; 25. Foydali qazilmalar zaxiralari bo‘limi<sup>10</sup>; 26. Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tilash davlat dasturini amalga oshirishni monitoring va nazorat qilish bo‘limi; 27. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘limi; 28. Jamoatchilik va ommaviy-axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi; 29. Nazorat va ijro intizomi bo‘limi<sup>11</sup>; 30. Kadrlar bo‘limi; 31. Murojaatlar bilan ishlash bo‘limi; 32. Birinchi bo‘lim; 33. Yuridik bo‘lim.

Bugungi kunda Yagona geologiya tizimini tashkil qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga har tomonlama ko‘maklashish, ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarining shaffofligini maksimal ta‘minlash, yer qa‘ridan oqilona foydalanish yuzasidan nazoratni kuchaytirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi<sup>12</sup> vazifalariga va O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi<sup>13</sup>ga muvofiq faoliyat olib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi davrida geologiya sohasiga katta e‘tibor qaratmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish borasida yetarlicha ishlar olib borilmoqda. Xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish borasida investitsiyalarni yanada ko‘proq jalb qilish maqsadi amalga oshirilmoqda. Uning qoshida, bugungi kunda Oliy ta‘lim muassasalaridan – Geologiya fanlari universiteti faoliyat yo‘lga qo‘yildi.

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 1-mart, PQ-3578-son.

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 1-mart, PQ-3578-son.

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son.

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2017-yil 8-sentabr, PF-5185-son.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 29.
2. O‘zbekiston sovet sotsialistik respublikasi Prezidentining Farmoni, “O‘zbekiston SSR Davlat geologiya va mineral resurslar komitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 1991-yil 12-fevral. PF-142-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori,” O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom”, 2018-yil 27-aprel. PQ-315-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2017-yil 28 iyul. PF-5124 son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 8-iyun. PQ-4740-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 1-mart, PQ-3578-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2017-yil 8-sentabr, PF-5185-son.